

## II . SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 23 944,6 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 103,6 %ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatiga to'g'ri kelib, jami ishlab chiqarish hajmining 92,9 %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni qazish – 0,6%ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,8%ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 0,7 %ga o'sish kuzatildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %)

2022-yil yanvar-sentabr

2023-yil yanvar-sentabr



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishslash sanoati)



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 147,4 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ni tashkil etdi. Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi – 2,1 martani tashkil qildi.


## **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22 241,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,9 % ni tashkil etdi.

### **Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining hajmi 82,8 mlrd. so‘mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3%), o‘rta-yuqori texnologiyali 4 099,0 mlrd. so‘mni, (17,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali 5 641,7 mlrd. so‘mni (23,6 %), va quyi texnologiyali 12 418,4 mlrd. so‘mni, (51,9 %) tashkil etdi.

### **2023-yil yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**



### **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 392,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘i o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 112,7 % ni tashkil etdi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

(2023- yil yanvar-sentabr)

|                                 | <i>2023- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2022- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2022- yilga nisbatan, %da</i> |
|---------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|----------------------------------|
| Elektroenergiya - mln. kVt/s    | 268,5                           | 296,9                           | 90,4                             |
| Issiqlik energiyasi – ming Gkal | 1188,0                          | 971,4                           | 122,3                            |

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
(2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

|  | <i>O‘lchov birligi</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2022- yil yanvar-sentabr holatiga nisbatan, % da</i> |
|--|------------------------|---------------------------------|---|
| Avtomobil benzini                                    | ming tonna             | 241,5                           | 152,6   |
| Dizel yoqilg‘isi                                     | ming tonna             | 325,3                           | 139,7   |
| Uzum vinosi  | ming litr              | 536,1                           | 116,7   |
| Neft bitumi  | ming tonna             | 49,5                            | 186,8   |
| Superfosfat  | ming tonna<br>P2O5     | 10,3                            | 34,4  |
| Paxta chigiti  | tonna                  | 87101,7                         | 141,2   |
| Shassi g‘ildiraklari, ularning qismlari va jihozlari | tonna                  | 1706,0                          | 114,9   |
| Gerbisidlar  | tonna                  | 957,7                           | 2,5 m.  |

**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 163,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ni) tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘i o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 %ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

|   | mlrd.<br>so'm   | Jami hajmga<br>nisbatan foizda |
|---|-----------------|--------------------------------|
| <b>Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi</b>   | <b>23 944,6</b> | <b>100,0</b>                   |
| <b>Tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishslash</b>  | <b>147,4</b>    | <b>0,6</b>                     |
| <ulardan:< ul=""></ulardan:<>   |                 |                                |
| Tog'–kon sanoatining boshqa turlari   | 147,4           | 0,6                            |
| <b>Qayta ishslash sanoati</b>   | <b>22 241,9</b> | <b>92,9</b>                    |
| <undan:< und=""></undan:<>  |                 |                                |
| Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish  | 3 125,9         | 13,1                           |
| to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish   | 8 273,6         | 34,6                           |
| yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari   | 782,2           | 3,3                            |
| yozilgan materialarni nashr qilish va aks ettirish  | 11,1            | 0,05                           |
| koks va neftni qayta ishslash mahsulotlari ishlab chiqarish   | 1 180,6         | 4,9                            |
| kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish  | 3 564,8         | 14,9                           |
| asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish  | 27,8            | 0,1                            |
| boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish  | 225,5           | 0,9                            |
| metalluriya sanoati   | 170,7           | 0,7                            |
| mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish | 1 935,4         | 8,1                            |
| boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish  | 2 944,2         | 12,3                           |
| <b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>  | <b>1392,1</b>   | <b>5,8</b>                     |
| <b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>   | <b>163,3</b>    | <b>0,7</b>                     |


## Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Buvayda tumani (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 113,5 %ga), Uchko‘prik tumani (110,8 %ga), Yozyovon tumani (110,4 %ga) hamda Marg‘ilon shahri (109,7 %ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o‘sishi ta’minlandi.

### Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,

#### indeksining o‘sish sur’atlari

(2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun)




## Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

|                      | Sanoat mahsulotlari<br>(mlrd. so ‘m) | Jamiga nisbatan<br>ulushi %da | 2022-yil yanvar-<br>sentabr oylariga<br>nisbatan %da |
|----------------------|--------------------------------------|-------------------------------|--|
| <b>Viloyat jami:</b> | <b>23 944,6</b>                      | <b>100,0</b>                  | <b>103,6</b>   |
| Farg‘ona             | 6 316,6                              | 26,4                          | 101,8  |
| Qo‘qon               | 4 225,2                              | 17,6                          | 100,1  |
| Quvasoy              | 1 173,9                              | 4,9                           | 103,2  |
| Marg‘ilon            | 970,3                                | 4,1                           | 109,7  |
| <i>tumanlar:</i>     |                                      |                               |  |
| Oltiariq             | 599,3                                | 2,5                           | 100,1  |
| Qo‘shtepa            | 1 566,5                              | 6,5                           | 109,6  |
| Bag‘dod              | 652,8                                | 2,7                           | 100,2  |
| Buvayda              | 494,8                                | 2,1                           | 113,5  |
| Beshariq             | 746,4                                | 3,1                           | 107,3  |
| Quva                 | 506,9                                | 2,1                           | 100,3  |
| Uchko‘prik           | 1 934,5                              | 8,1                           | 110,8  |
| Rishton              | 278,6                                | 1,2                           | 104,5  |
| So‘x                 | 77,5                                 | 0,3                           | 105,1  |
| Toshloq              | 1 775,2                              | 7,4                           | 80,1   |
| O‘zbekiston          | 717,6                                | 3,0                           | 106,3  |
| Farg‘ona             | 745,0                                | 3,1                           | 104,1  |
| Dang‘ara             | 681,5                                | 2,8                           | 105,8  |
| Furqat               | 319,2                                | 1,3                           | 103,7  |
| Yozyovon             | 162,8                                | 0,7                           | 110,4  |


Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini tuman va shaharlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, Farg‘ona shahrida 6 316,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 %ni, Qo‘qon shahrida 4 225,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %ni, Quvasoy shahrida 1 173,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,2 %ni, Marg‘ilon shahrida 970,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %ni, Oltiariq tumanida 599,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %ni, Qo‘shtepa tumanida 1 566,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 %ni, Bag‘dod tumanida 652,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,2 %ni, Buvayda tumanida 494,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %ni, Beshariq tumanida 746,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab

chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,3 %ni, Quva tumanida 506,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 %ni, Uchko‘prik tumanida 1 934,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %ni, Rishton tumanida 278,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %ni, So‘x tumanida 77,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %ni, Toshloq tumanida 1 775,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 80,1 %ni, O‘zbekiston tumanida 717,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 %ni, Farg‘ona tumanida 745,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,1 %ni, Dang‘ara tumanida 681,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 %ni, Furqat tumanida 319,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %ni, Yozyovon tumanida 162,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,4 %ni, tashkil etdi.

### **Tuman (shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-sentabr)**




Kichik tadbirdorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshishiga olib keldi, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 45,8 %ni tashkil etmoqda.



## Hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi


(2023- yil yanvar-sentabr oylari, foiz hisobida)



■ Kichik korxonalar ■ Yirik korxonalar

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Farg'ona shahrida (19 912,1 ming so'm), Qo'qon shahrida (13 819,8 ming so'm), Quvasoy shahrida (11 768,7 ming so'm), Toshloq tumani (8 214,8 ming so'mni)da viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.


**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi, ming so‘mda**  
(2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun)




Bugungi kunda viloyatda 7 949 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ulardan 948 tasi Qo‘qon shahri, 897 tasi Farg‘ona shahri, 784 tasi Marg‘ilon shahri, 568 tasi Uchko‘prik tumani, 568 tasi Dang‘ara tumani, 454 tasi O‘zbekiston tumani, 413 tasi Rishton tumani, 390 tasi Toshloq tumani, 374 tasi Bag‘dod tumani, 362 tasi Buvayda tumani, 362 tasi Quva tumani, 323 tasi Oltiariq tumani, 281 tasi Farg‘ona tumani, 245 tasi Quvasoy shahri, 270 tasi Qo‘shtepa tumani, 226 tasi Beshariq tumani, 214 tasi Yozyovon tumani 209 tasi So‘x tumani hamda 198 tasi Furqat tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning 1-oktabr holatiga viloyatda 1400 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ulardan 218 tasi Farg‘ona shahri, 110 tasi Dang‘ara tumani, 129 tasi Marg‘ilon shahri, 92 tasi Qo‘qon shahri, 82 tasi Toshloq tumani, 75 tasi Buvayda tumani, 66 tasi O‘zbekiston tumani, 65 tasi Bag‘dod tumani, 66 tasi Uchko‘prik tumani, 58 tasi Quvasoy shahri, 58 tasi Quva tumani, 56 tasi Furqat tumani, 51 tasi So‘x tumani, 56 tasi Rishton tumani, 39 tasi Beshariq tumani, 47 tasi Oltiariq tumani, 41 tasi Farg‘ona tumani, 59 tasi Qo‘shtepa tumani, 32 tasi Yozyovon tumaniga to‘g‘ri keladi.

**Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan hamda yil boshidan yangi tashkil etilgan korxonalar**  
*(2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun, soni birlikda)*



**Hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mulkchilik shakllari, foizda**  
*(2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun)*



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 153 ta loyiha bo‘yicha 2 163,6 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**  
(2023- yil yanvar-sentabr)

|  | 2022- yil<br>yanvar-sentabr | 2023- yil<br>yanvar-sentabr |
|--|-----------------------------|-----------------------------|
| <b>Loyihalar soni, birlik</b>  | 165                         | 153                         |
| <b>Korxonalar soni, birlik</b>   | 115                         | 131                         |
| <b>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m</b>  | 1 447,9                     | 2 163,6                     |
| <b>Eksport qilingan mahalliylashtirilgan<br/>mahsulotlar hajmi, mln AQSH doll.</b> | 41,0                        | 20,7                        |
| <b>Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik</b>                                      | 558                         | 944                         |


**Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 5 279,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 101,3 %ni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 22,0 %ni tashkil etdi.


**2023- yil yanvar-sentabr holatiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**

|                                       | mlrd.<br>so‘m  | Jami hajmga<br>nisbatan foizda |
|---------------------------------------|----------------|--------------------------------|
| <b>Jami iste’mol tovarlari hajmi:</b> | <b>5 279,3</b> | <b>100,0</b>                   |
| <i>shu jumladan:</i>                  |                |                                |
| oziq-ovqat tovarlari                  | 2 532,1        | 48,0                           |
| nooziq-ovqat tovarlari                | 2 747,2        | 52,0                           |

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi



## Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da (yanvar-sentabr oylari uchun)



## Hududlar bo‘yicha 2023-yil yanvar-sentabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’ati

|                      | Xalq iste’mol mollari<br>(mlrd. so‘m) | Jamiga nisbatan<br>ulushi %da | 2022- yil yanvar-<br>sentabr oylariga<br>nisbatan %da |
|----------------------|---------------------------------------|-------------------------------|---|
| <b>Viloyat jami:</b> | <b>5 279,3</b>                        | <b>100,0</b>                  | <b>101,3</b>  |
| Farg‘ona             | 504,2                                 | 9,6                           | 84,4  |
| Qo‘qon               | 822,7                                 | 15,6                          | 90,9  |
| Quvasoy              | 94,7                                  | 1,8                           | 134,9   |
| Marg‘ilon            | 369,0                                 | 7,0                           | 103,1   |
| <b>tumanlar:</b>     |                                       |                               |   |
| Oltiariq             | 150,7                                 | 2,9                           | 100,3   |
| Qo‘shtepa            | 212,4                                 | 4,0                           | 101,7   |
| Bag‘dod              | 415,9                                 | 7,9                           | 104,1   |
| Buvayda              | 152,5                                 | 2,9                           | 141,0   |
| Beshariq             | 105,5                                 | 2,0                           | 153,5   |
| Quva                 | 226,4                                 | 4,3                           | 103,0   |
| Uchko‘prik           | 979,9                                 | 18,6                          | 103,9   |
| Rishton              | 112,3                                 | 2,1                           | 151,9   |
| So‘x                 | 50,5                                  | 1,0                           | 108,5   |
| Toshloq              | 311,4                                 | 5,9                           | 79,0  |
| O‘zbekiston          | 113,2                                 | 2,1                           | 145,2   |
| Farg‘ona             | 122,5                                 | 2,3                           | 114,5   |
| Dang‘ara             | 236,0                                 | 4,5                           | 108,2   |
| Furqat               | 228,7                                 | 4,3                           | 113,8   |
| Yozyovon             | 70,7                                  | 1,3                           | 108,1   |

### Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 18,6 %ni, shuningdek Qo‘qon shahri 15,6 %ni, Farg‘ona shahri esa 9,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o’sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkich Rishton (263,4 %), Toshloq (182,1 %) va Toshloq tumanlarida (150,7%) ga ko‘p qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha 2023- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati**

|                      | <b>Oziq-ovqat<br/>mahsulotlari ishlab<br/>chiqarish<br/>(mlrd. so‘m)</b> | <b>Jamiga<br/>nisbatan ulushi<br/>%da</b> | <b>2022-yil yanvar-<br/>sentabr oylariga<br/>nisbatan %da</b> |
|----------------------|--|---|---|
| <b>Viloyat jami:</b> | <b>2 532,1</b>   | <b>100,0</b>                              | <b>104,4</b>  |
| Farg‘ona             | 184,3  | 7,3                                       | 70,0  |
| Qo‘qon               | 317,5  | 12,5                                      | 88,8  |
| Quvasoy              | 58,4   | 2,3                                       | 135,5   |
| Marg‘ilon            | 160,4  | 6,3                                       | 94,2  |
| <b>tumanlar:</b>     |  |   |   |
| Oltiariq             | 50,8   | 2,0                                       | 104,0   |
| Qo‘shtepa            | 54,2   | 2,1                                       | 82,9  |
| Bag‘dod              | 238,0  | 9,4                                       | 118,7   |
| Buvayda              | 41,2   | 1,6                                       | 65,9  |
| Beshariq             | 66,0   | 2,6                                       | 110,3   |
| Quva                 | 163,8  | 6,5                                       | 109,5   |
| Uchko‘prik           | 613,4  | 24,2                                      | 107,2   |
| Rishton              | 74,4   | 2,9                                       | 2,6 m.  |
| So‘x                 | 33,3   | 1,3                                       | 113,8   |
| Toshloq              | 55,5   | 2,2                                       | 182,1   |
| O‘zbekiston          | 71,5   | 2,8                                       | 137,2   |
| Farg‘ona             | 110,5  | 4,4                                       | 106,0   |
| Dang‘ara             | 69,2   | 2,7                                       | 101,2   |
| Furqat               | 123,0  | 4,9                                       | 93,6  |
| Yozyovon             | 46,5   | 1,8                                       | 109,2   |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib, 18,4 %ni, shuningdek Farg‘ona shahriga 11,6%ni, va Uchko‘prik tumanida 13,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkichini Beshariq (4,4 m.), Farg‘ona (4,3 m.) tumanlari va Quvasoy shahri 134,0 %ni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha 2023- yil yanvar-sentabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati**


|                      | <b>Nooziq-ovqat<br/>mahsulotlari ishlab<br/>chiqarish<br/>(mlrd. so‘m)</b> | <b>Jamiga nisbatan<br/>ulushi %da</b> | <b>2022- yil<br/>yanvar-sentabr<br/>oylariga<br/>nisbatan %da</b> |
|----------------------|--|---------------------------------------|---|
| <b>Viloyat jami:</b> | <b>2 747,2</b>   | <b>100,0</b>                          | <b>98,6</b>   |
| Farg‘ona             | 319,9  | 11,6                                  | 95,7  |
| Qo‘qon               | 505,3  | 18,4                                  | 92,3  |
| Quvasoy              | 36,2   | 1,3                                   | 134,0   |
| Marg‘ilon            | 208,5  | 7,6                                   | 111,1   |
| <i>tumanlar:</i>     |  |                                       |   |
| Oltiariq             | 99,9   | 3,6                                   | 98,6  |
| Qo‘shtepa            | 158,2  | 5,8                                   | 110,3   |
| Bag‘dod              | 177,9  | 6,5                                   | 89,5  |
| Buvayda              | 111,2  | 4,0                                   | 2,4 m.  |
| Beshariq             | 39,5   | 1,4                                   | 4,4 m.  |
| Quva                 | 62,6   | 2,3                                   | 89,0  |
| Uchko‘prik           | 366,5  | 13,3                                  | 98,9  |
| Rishton              | 37,9   | 1,4                                   | 82,9  |
| So‘x                 | 17,2   | 0,6                                   | 99,6  |
| Toshloq              | 255,8  | 9,3                                   | 70,4  |
| O‘zbekiston          | 41,8   | 1,5                                   | 161,3   |
| Farg‘ona             | 12,0   | 0,4                                   | 4,3 m.  |
| Dang‘ara             | 166,8  | 6,1                                   | 111,3   |
| Furqat               | 105,7  | 3,8                                   | 88,6  |
| Yozyovon             | 24,1   | 1,1                                   | 88,3  |

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 378,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 26,6 %ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiyligi hajmdagi ulushi, % da**

**2022-yil yanvar- sentabr**



**2023-yil yanvar- sentabr**



**Hududlar bo‘yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar hajmi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da  
(2023- yil yanvar-sentabr)**

